
So‘zboshi

“AHA! Matematika” mashq daftari darslikning ajralmas qismi hisoblanadi. Mashq daftari, asosan, uyda shug‘ullanishga mo‘ljallangan. Undagi turli xil amaliy mashq va masalalar, hayotiy topshiriqlar o‘quvchilarning mustaqil o‘rganishini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan. Mashq daftari yordamida o‘quvchilar yangi matematik bilimlarni o‘zlashtirish va mustahkamlash bilan birga, muammoli vaziyatlarda qo‘l keladigan mantiqiy fikrlash va mulohaza yuritish kabi hayotiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘ladi.

Matematika olamiga sayohatingiz qiziqarli va maroqli bo‘lsin!

Eslang

ruknida o‘quvchilarni avvalgi mavzularda o‘rganilgan bilimlarni eslashga yo‘naltiradi.




Topshiriq (D1 / D2 / D3)

1) D1 – birinchi darajali topshiriqlar o‘quvchilar mavzuga oid asosiy tushunchalarni qanday o‘zlashtirganini baholaydi va ularga tayanch ko‘nikmalarni egallashda yordam beradi.


2) D2 – ikkinchi darajali topshiriqlar o‘quvchilar mavzuga oid o‘rtacha murakkablikdagi tushunchalarni qanday o‘zlashtirganini baholaydi va ularga yuqori darajadagi fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda yordam beradi.

3) D3 – uchinchi darajali topshiriqlar o‘quvchilar mavzuga oid tushunchalarni qanchalik chuqur o‘zlashtirganini baholaydi hamda ulardagi ijodiy va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini nostandart, murakkab matematik masalalarni yechish orqali rivojlantiradi.



Amaliy topshiriq

rukni o‘quvchilarga mavzu bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarini namoyish qilish va o‘z-o‘zini baholash imkonini beradi.



Ism: Sinf: Sana:

Amaliy topshiriq

15

Matematika kundaligi


O‘quvchilarni matematikani o‘rganish jarayoni haqida fikrlashga undaydi.


Matematika kundaligi

18

Muammoli topshiriq

rukni o‘quvchilarni to‘rt bosqichli fikrlash jarayoni asosida mulohaza yuritishga va ijodiy yondashishga undaydi.


Muammoli topshiriq

Reja

Yechish

16

Takrorlash

rukni o‘quvchilarga egallagan bilim va ko‘nikmalarni takrorlash hamda mustahkamlash imkonini beradi.

Hisoblashlarni bajarishda kalkulyatordan foydalanish mumkin.


Ism: Sinf: Sana:

I TAKRORLASH

Ahelim

Ism: Sinf: Sana:

D1 8-topshiriq

Matnli masalalar

37

MUNDARIJA

1 NATURAL SONLAR 1

Eslang 1
1 milliongacha bo‘lgan sonlar 5
10 milliongacha bo‘lgan sonlar 9
Amaliy topshiriq 15
O‘ylab ko‘ring. Muammoli topshiriq 16
Matematika kundaligi 18

2 SONLAR USTIDA TO‘RT AMAL 19

Sonni 10, 100 va 1000 ga ko‘paytirish 19
Sonni o‘nlik, yuzlik va mingliklarga ko‘paytirish 21
Sonni 10, 100 va 1000 ga bo‘lish 25
Sonni o‘nlik, yuzlik va mingliklarga bo‘lish 27
Qavssiz ifodalarda amallarni bajarish tartibi 31
Qavsli ifodalarda amallarni bajarish tartibi 35
Matnli masalalar 37
Amaliy topshiriq 51
O‘ylab ko‘ring. Muammoli topshiriq 52
Matematika kundaligi 54

3 ODDIY KASRLAR 55

Sonlarni bo‘lishni kasr ko‘rinishida ifodalash 55
Oddiy kasrni o‘nli kasrga aylantirish 59
Eslang 63
Aralash sonlarni qo‘shish va ayirish 65
Eslang 71
To‘g‘ri kasrni natural songa ko‘paytirish 73
Noto‘g‘ri kasrni natural songa ko‘paytirish 77
Ikkita to‘g‘ri kasrni ko‘paytirish 79
To‘g‘ri va noto‘g‘ri kasrlarni ko‘paytirish 81
Ikkita noto‘g‘ri kasrni ko‘paytirish 83
Aralash sonni natural songa ko‘paytirish 85
Qolgan qismning qismi 89
Matnli masalalar 91
Amaliy topshiriq 97
O‘ylab ko‘ring. Muammoli topshiriq 98
Matematika kundaligi 100

I TAKRORLASH 101

4 UCHBURCHAKNING YUZI 115

Eslang 115
Uchburchakning asosi va balandligi 117
Uchburchakning yuzini topish 119
To‘g‘ri to‘rtburchak va uchburchaklardan tuzilgan murakkab shakllarning yuzi 123
Amaliy topshiriq 135
O‘ylab ko‘ring. Muammoli topshiriq 136
Matematika kundaligi 138

5 HAJM 139

Fazoviy jismlarning hajmi 139
Uch o‘lchamli panjarada fazoviy jismlarni chizish 141
Kvadratli panjarada fazoviy jismlarning turli ko‘rinishlarini chizish 143
Hajmni santimetr kub va metr kubda o‘lchash 145
Kuboid va kubning hajmini topish 147
Suyuqlik hajmini santimetr kub va metr kubda o‘lchash 151
Matnli masalalar 153
Amaliy topshiriq 161
O‘ylab ko‘ring. Muammoli topshiriq 162
Matematika kundaligi 164

6 NISBATLAR 165

Nisbat tushunchasi 165
Teng kuchli nisbatlar 169
Berilgan miqdor va nisbatga ko‘ra boshqa miqdorni topish 179
Berilgan jami miqdor va nisbatga ko‘ra uning qismlarini topish 181
Ikkita miqdorning nisbatiga doir matnli masalalar 183
Uchta miqdorning nisbati 189
Uchta miqdorning nisbatiga doir matnli masalalar 193
Amaliy topshiriq 201
O‘ylab ko‘ring. Muammoli topshiriq 202
Matematika kundaligi 203

II TAKRORLASH 204

Ism: Sinf: Sana:


1 Natural sonlar

Eslang 

100 000 gacha bo‘lgan sonlar


1 Sonli tugmachalarda ifodalangan sonni yozing.

a)



_____ soni

b)



_____ soni

2 Sonlarni raqamlar bilan yozing.

a) yigirma to‘rt ming bir yuz o‘n olti _____

b) oltmish to‘qqiz ming besh _____

c) yuz ming _____

3 Sonlarni so‘zlar bilan yozing.

a) 26 354

_____

b) 74 940

_____


c) 88 405

_____

d) 90 069

_____

4 Sondagi har bir raqamning u turgan xonaga mos qiymatini yozing.



5 87 064 sonidagi:

a) 7 raqami _____ (soni)ni bildiradi.

b) 6 raqami _____ (soni)ni bildiradi.

6 92 358 sonidagi:

a) 9 raqami _____ xonasida joylashgan.

b) 3 raqami _____ xonasida joylashgan.

7 Tushirib qoldirilgan sonni yozing.

a) 73 804 = 70 000 + _____ + 800 + 4

b) 85 931 = _____ + 5000 + 900 + 30 + 1

8 a) Quyidagi sonlarni taqqoslab, o‘sib borish tartibida yozing.

72 536 *72 635* *72 356*


_____, _____, _____

b) Quyidagi sonlarni taqqoslab, kamayib borish tartibida yozing.

64 010 *60 410* *64 100* *60 401*

_____, _____, _____, _____

9 Sonlar o‘qida A, B, C va D harflariga mos keluvchi sonlarni toping.



A _____ B _____

C _____ D _____

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 3 22/08/24 19:23

10 Tushirib qoldirilgan sonlarni toping. Sonli ketma-ketlikdagi qonuniyatni yozing.

a) 27 451, 28 451, 29 451, 30 451, _____, _____

Qonuniyat: _____.

b) _____, _____, 58 150, 58 050, 57 950, 57 850

Qonuniyat: _____.

11 Quyidagi sonlarni yaxlitlang.

Son	O‘nlar xonasigacha	Yuzlar xonasigacha	Minglar xonasigacha
3065			
4892			
15 104			
37 597			

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 4 22/08/24 19:23


Ism: Sinf: Sana:

1 milliongacha bo‘lgan sonlar

D1 1-topshiriq

1 Sonli tugmachalarda ifodalangan sonni so‘zlar va raqamlar bilan yozing.

a)




Raqamlar bilan: _____

So‘zlar bilan: _____

_____

b)



Raqamlar bilan: _____

So‘zlar bilan: _____

_____

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 5 22/08/24 19:23

2 Sonlarni raqamlar bilan yozing.

a) olti yuz ellik besh ming yetti yuz o‘ttiz sakkiz

b) ikki yuz to‘qson uch ming to‘qqiz yuz qirq to‘qqiz

c) bir yuz o‘n uch ming yigirma olti

d) sakkiz yuz ming sakkiz

3 Tagiga chizilgan sonlarni so‘zlar bilan yozing.

2022-yil davomida O‘zbekistonda tug‘ilgan bolalar 932 217 nafarni tashkil etdi. Ulardan 482 368 nafari – o‘g‘il bola va 449 849 nafari – qizlar.

Manba: stat.uz

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 6 22/08/24 19:23

4 Har bir pattadagi pul miqdorini so‘zlar bilan yozing.

a)

PATTA Xazinachi	Invoys raqami: 12345678910 O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g‘aznachiligi			
	Bank nomi	MB Toshkent shahri Bosh boshqarmasi		
	Bank kodi	00001	**STIR**	000000000
	To‘lovchi	Akmal Abdullayev		
	To‘lov turi			Jami
	Tabiiy gaz uchun			132 780 so‘m
	So‘zlar bilan			

b)

PATTA Xazinachi	Invoys raqami: 12345678915 O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g‘aznachiligi			
	Bank nomi	MB Toshkent shahri Bosh boshqarmasi		
	Bank kodi	00001	**STIR**	000000000
	To‘lovchi	Akmal Abdullayev		
	To‘lov turi			Jami
	Elektr energiyasi uchun			700 436 so‘m
	So‘zlar bilan			

c)

PATTA Xazinachi	Invoys raqami 12345678963 O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi g‘aznachiligi			
	Bank nomi	MB Toshkent shahri Bosh boshqarmasi		
	Bank kodi	00001	**STIR**	000000000
	To‘lovchi	Akmal Abdullayev		
	To‘lov turi			Jami
	Sovuq suv uchun			925 005 so‘m
	So‘zlar bilan			

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 7 22/08/24 19:23

5 Tushirib qoldirilgan sonlarni yozing.

a) 968 245 = 968 000 + _____

b) 703 152 = _____ + 152

c) 800 209 = 800 000 + _____

d) _____ = 470 000 + 500

e) _____ + 832 = 634 832

f) 530 002 = _____ + 2

6 Namuna asosida son tuzing va uni yozing.

Namuna:

4 0 0 0 0 0 6 2 5

400 625

a) 5 0 0 0 0 0 4 5 0

_____

b) 6 0 0 0 0 0 9 0

_____

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 8 22/08/24 19:23


Ism: Sinf: Sana:

10 milliongacha bo‘lgan sonlar

D1 2-topshiriq

1 Sonli tugmachalarda ifodalangan sonni so‘zlar va raqamlar bilan yozing.

a)




Raqamlar bilan: _____

So‘zlar bilan: _____

_____

b)




Raqamlar bilan: _____

So‘zlar bilan: _____

_____

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 9 22/08/24 19:24

c)



Raqamlar bilan: _____

So‘zlar bilan: _____

_____

2 Sonlarni raqamlar bilan yozing.

a) to‘rt million qirq to‘rt

b) sakkiz million olti yuz yigirma besh ming o‘n bir

c) yetti million ikki yuz yetti ming o‘ttiz

d) to‘qqiz million sakkiz yuz yigirma bir ming olti yuz o‘ttiz yetti

e) o‘n million

f) olti million besh yuz to‘qson

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 10 22/08/24 19:24

3 Quyidagi jadvalda 2023-yilda turli davlatlardan O‘zbekistonga kelgan sayyohlar soni berilgan.

Sayyohlar sonini so‘zlar bilan yozing.

Davlatlar	Sayyohlar soni
Qirg‘iziston	1 757 100
Rossiya	714 300
Tojikiston	2 155 200
Boshqa davlatlardan	3 719 650

a) Qirg‘izistondan _____

_____

nafar sayyoh kelgan.

b) Rossiyadan _____

_____

nafar sayyoh kelgan.

c) Tojikistondan _____

_____

nafar sayyoh kelgan.

d) Boshqa davlatlardan _____

_____

nafar sayyoh kelgan.

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 11 22/08/24 19:24

4 Tushirib qoldirilgan sonlarni toping.

a) 1 789 302 = _____ + 789 000 + 302

b) 4 256 000 = 4 000 000 + _____

c) 5 390 000 = 5 000 000 + _____

d) 7 000 048 = 7 000 000 + _____

e) 8 901 006 = 8 000 000 + _____ + 6

f) 9 000 000 + _____ + 86 = 9 231 086

5 Sonning qo‘shiluvchilaridan foydalanib uni yozing.

a) 4 0 0 0 0 0 0 | 2 5 0 0 0 0 | 3 7

_____

b) 8 0 0 0 0 0 0 | 6 2 0 0 0 | 5

_____

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 12 22/08/24 19:24

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D2 3-topshiriq

1 Quyidagi jadvalda turli tumanlarda yangi qurilgan ko‘p qavatli uylardagi xonadonlarning har bir metr kvadrati narxi haqida ma’lumot berilgan.

Tumanlar	Xonadonlarning narxi (1 m^2)
Asaka	2 820 670 so‘m
Pop	2 513 500 so‘m
Xiva	3 684 990 so‘m
To‘rtko‘l	1 987 210 so‘m
Gurlan	1 655 800 so‘m

a) Qaysi tuman(lar)dagi xonadonlarning bir metr kvadrati 2 000 000 so‘mdan qimmat?

b) Qaysi tuman(lar)dagi xonadonlarning bir metr kvadrati 2 500 000 so‘mdan arzon?

c) Qaysi tuman(lar)dagi xonadonlarning bir metr kvadrati 1 500 000 so‘mga yaqin?

2 Quyidagi raqamli kartalarning hammasidan foydalanib, berilgan shart asosida yetti xonali son tuzing.



a) Eng katta juft sonni hosil qiling. _____

b) Eng kichik toq sonni hosil qiling. _____

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 13 22/08/24 19:24

3 Quyidagi raqamli kartalarning hammasidan foydalanib, 800 000 ga eng yaqin olti xonali sonni hosil qiling.



Ushbu son: _____.

4 Quyidagi raqamli kartalarning hammasidan foydalanib, bir millionga eng yaqin olti xonali sonni hosil qiling.



Ushbu son: _____.

5 Quyidagi raqamli kartalarning hammasidan foydalanib, besh millionga eng yaqin yetti xonali sonni hosil qiling.



Ushbu son: _____.

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 14 22/08/24 19:24

Ism: **Sinf:** **Sana:**

Amaliy topshiriq 

Sonlarni ayirishda kalkulyatordan foydalaning.

Namuna:

Olti xonali son o‘ylang. Ushbu olti xonali sonning barcha raqamlari turlicha va 0 dan farqli bo‘lsin. Uni kalkulyatorga kiriting. Masalan, 123456 kabi olti xonali son yozishingiz mumkin.
Kalkulyatorga kiritilgan sondan shunday sonni ayiringki,
a) ayirma 6 ga teng bo‘lsin (*maslahat:* sonning birlar xonasida turgan raqamiga qarang).

123 456 – 123 450 = 6

b) ayirma 20 000 bo‘lsin (*maslahat:* sonning o‘n minglar xonasida turgan raqamiga qarang).

123 456 – 103 456 = 20 000

Endi olti xonali son o‘ylang. Sonlarni ayirish uchun namunada ko‘rsatilganidek kalkulyatordan foydalaning.

a) Men o‘ylagan olti xonali son _____.

Men ayirma 700 bo‘lishini xohlayman.

Ayirish amaliga mos ifoda:

_____ – _____ = _____.

b) Men o‘ylagan olti xonali son _____.

Men ayirma 70 000 bo‘lishini xohlayman.


Ayirish amaliga mos ifoda:

_____ – _____ = _____.

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 15 22/08/24 19:24

Muammoli topshiriq

Ravshan quyida tasvirlanganidek nuqta va kesmalar orqali shakllar ketma-ketligini chizmoqda.



1-shakl **2-shakl** **3-shakl** **4-shakl**

a) 8-shaklda nechta nuqta bo‘ladi?

b) Nechanchi shaklda 21 ta nuqta bo‘ladi? Ushbu shaklda kesmalar soni nechta?

- Masalani tushundingizmi?
- Reja tuzing.
- Masalani yeching.
- Javobni tekshiring.

Reja

Yechish

- Rasmli ketma-ketlikdagi qonuniyatni aniqlang va jadvalni to‘ldiring.

Shakl	Nuqtalar soni	Kesmalar soni
1	3	$1 \times 3 = 3$
2		
3		
4		
5		
6		
7		
8		

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 16 22/08/24 19:24

a)

8-shaklda ____ ta nuqta bo‘ladi.

b)

____ -shaklda 21 ta nuqta va ____ ta kesma bo‘ladi.

Tekshirish

- a)

b)

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 17 22/08/24 19:24

Matematika kundaligi



Internet tarmog‘iga kirib, bir milliondan o‘n milliongacha bo‘lgan sonlar ishtirok etgan biror xabarni o‘qing. Quyidagi bo‘sh joyga shu xabarga doir qisqa ma’lumot yozing. Xabarda katta sonlardan foydalanish sababini qisqacha bayon eting.

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 18 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

2 Sonlar ustida to‘rt amal

Sonni 10, 100 va 1000 ga ko‘paytirish

D1 1-topshiriq

1 Ko‘paytiring.

a) 68 × 10 =	b) 579 × 10 =
c) 2803 × 10 =	d) 9780 × 10 =
e) 10 × 15 002 =	f) 24 576 × 10 =

2 Ko‘paytiring.

a) 30 × 100 =	b) 55 × 100 =
c) 823 × 100 =	d) 100 × 408 =
e) 1001 × 100 =	f) 100 × 6725 =

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 19 22/08/24 19:24

3 Ko‘paytiring.

a) 62 × 1000 =	b) 83 × 1000 =
c) 400 × 1000 =	d) 1000 × 648 =
e) 1000 × 286 =	f) 507 × 1000 =
g) 900 × 1000 =	h) 802 × 1000 =

4 Ko‘paytiring.

	× 10	**× 100**	**× 1000**
76	760	7600	76 000
309			
9204			

5 a) 1-shaharda 17 533 kishi yashaydi. 2-shaharda esa 1-shaharga qaraganda 10 marta ko‘p kishi yashaydi.

2-shaharda _____ nafar aholi yashaydi.

b) 1-shaharda 91 920 kishi yashaydi. 2-shaharda esa 1-shaharga qaraganda 100 marta ko‘p kishi yashaydi.

2-shaharda _____ kishi yashaydi.

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 20 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

Sonni o‘nlik, yuzlik va mingliklarga ko‘paytirish

D1 2-topshiriq

1 Avval ko‘paytirishning qulay usulidan foydalanib ko‘paytiring, so‘ng kalkulyator yordamida natijani tekshiring.

a) $76 \times 40 =$	
b) $166 \times 30 =$	
c) $70 \times 5600 =$	

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 21 22/08/24 19:24

2 Avval ko‘paytirishning qulay usulidan foydalanib ko‘paytiring, so‘ng kalkulyator yordamida natijani tekshiring.

a) $29 \times 300 =$

b) $672 \times 700 =$

c) $4108 \times 600 =$

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 22 22/08/24 19:24

3 Avval ko‘paytirishning qulay usulidan foydalanib ko‘paytiring, so‘ng kalkulyator yordamida natijani tekshiring.

a) $302 \times 8000 =$

b) $123 \times 7000 =$

c) $871 \times 5000 =$

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 23 22/08/24 19:24

4 Ko‘paytirishga oid ifodalar orasidan ko‘paytmasi bir xil bo‘lganlarini (✓) belgilang.

a)	☐ 100 × 30	☐ 3 × 100 × 100	☐ 3 × 1000
b)	☐ 60 × 10 × 4	☐ 400 × 6 × 10	☐ 60 × 400
c)	☐ 22 × 100 × 10	☐ 200 × 2 × 10	☐ 1000 × 22
d)	☐ 9 × 100 × 20	☐ 9 × 2 × 1000	☐ 10 × 90 × 200

5 Ko‘paytirishga oid ifodalar orasidan ko‘paytmasi bir xil bo‘lganlarini (✓) belgilang.

a)	☐ 57 × 1000 × 3	☐ 50 × 7 × 3000	☐ 57 × 3 × 1000
b)	☐ 1000 × 5 × 42	☐ 42 × 5000	☐ 42 × 5 × 1000
c)	☐ 33 × 3 × 100	☐ 33 × 1000 × 3	☐ 33 × 3000
d)	☐ 40 × 7 × 1000	☐ 7 × 40 × 10 × 100	☐ 47 × 7 × 1000

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 24 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

Sonni 10, 100 va 1000 ga bo‘lish

D1 3-topshiriq

1 Bo‘ling.

a) 50 ÷ 10 =	b) 600 ÷ 10 =
c) 430 ÷ 10 =	d) 9000 ÷ 10 =
e) 8540 ÷ 10 =	f) 31 000 ÷ 10 =

2 Bo‘ling.

a) 9000 ÷ 100 =	b) 8600 ÷ 100 =
c) 23 000 ÷ 100 =	d) 44 000 ÷ 100 =
e) 180 600 ÷ 100 =	f) 510 400 ÷ 100 =

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 25 22/08/24 19:24

3 Bo‘ling.

a) 20 000 ÷ 1000 =	b) 50 000 ÷ 1000 =
c) 39 000 ÷ 1000 =	d) 400 000 ÷ 1000 =
e) 750 000 ÷ 1000 =	f) 1 908 000 ÷ 1000 =

4 Bo‘sh joylarni to‘ldiring.

a) 3250 ÷ _____ = 325

b) _____ ÷ 10 = 123

c) 1800 ÷ _____ = 18

d) _____ ÷ 100 = 63

e) 88 000 ÷ _____ = 88

f) _____ ÷ 1000 = 408

5 a) Salim akada 63 500 so‘m bor va uning puli Vohid akanikiga qaraganda 10 marta ko‘p.

Vohid akada _____ bor.

b) Ravshan akada 724 000 so‘m bor va uning puli Sobir akanikiga qaraganda 100 marta ko‘p.

Sobir akada _____ bor.

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 26 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

Sonni o‘nlik, yuzlik va mingliklarga bo‘lish

D1 4-topshiriq

1 Avval bo‘lishga qulay holatga keltirib, so‘ng bo‘ling. Kalkulyatordan foydalanib natijani tekshiring.

a) $540 \div 30 =$

b) $6950 \div 50 =$

c) $8960 \div 70 =$

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 27 22/08/24 19:24

2 Avval bo‘lishga qulay holatga keltirib, so‘ng bo‘ling. Kalkulyatordan foydalanib natijani tekshiring.

a) 5600 ÷ 200 =

b) 92 400 ÷ 600 =

c) 73 800 ÷ 900 =

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 28 22/08/24 19:24

3 Avval bo‘lishga qulay holatga keltirib, so‘ng bo‘ling. Kalkulyatordan foydalanib natijani tekshiring.

a) 63 000 ÷ 7000 =

b) 280 000 ÷ 4000 =

c) 848 000 ÷ 8000 =

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 29 22/08/24 19:24

4 Bo‘lishga oid ifodalar orasidan natijasi bir xil bo‘lganlarini belgilang.

a)	☐ 250 ÷ 10 ÷ 5	☐ 250 ÷ 5 ÷ 10	☐ 250 ÷ 50 ÷ 10
b)	☐ 600 ÷ 3 ÷ 10	☐ 600 ÷ 100 ÷ 3	☐ 600 ÷ 300
c)	☐ 700 ÷ 70	☐ 700 ÷ 10 ÷ 7	☐ 700 ÷ 7 ÷ 10
d)	☐ 120 ÷ 6 ÷ 10	☐ 120 ÷ 60	☐ 120 ÷ 60 ÷ 10

5 Bo‘lishga oid ifodalar orasidan natijasi bir xil bo‘lganlarini belgilang.

a)	☐ 5000 ÷ 100 ÷ 50	☐ 5000 ÷ 5 ÷ 100	☐ 5000 ÷ 50 ÷ 10
b)	☐ 8000 ÷ 4 ÷ 10	☐ 8000 ÷ 400 ÷ 10	☐ 8000 ÷ 4000
c)	☐ 36 000 ÷ 900	☐ 36 000 ÷ 100 ÷ 90	☐ 36 000 ÷ 9000
d)	☐ 48 000 ÷ 100 ÷ 80	☐ 48 000 ÷ 800 ÷ 10	☐ 48 000 ÷ 8000

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 30 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

Qavssiz ifodalarda amallarni bajarish tartibi

D1 5-topshiriq

1 Quyidagi ifodalarning qiymatini toping.

a) 34 + 15 + 29	b) 76 – 42 – 16
c) 63 + 48 – 71	d) 59 – 27 + 33
e) 15 + 83 – 58 + 19	f) 67 – 34 + 18 – 25

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 31 22/08/24 19:24

2 Quyidagi ifodalarning qiymatini toping.

a) $2 \times 3 \times 4$	b) $24 \div 6 \div 2$
c) $5 \times 6 \div 3$	d) $100 \div 5 \times 4$
e) $30 \div 10 \times 8 \div 6$	f) $9 \times 8 \div 6 \div 4$

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 32 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

D1 6-topshiriq

1 Quyidagi ifodalarning qay birida amallarni bajarish tartibi to‘g‘ri ko‘rsatilgan? Amallarni bajarish tartibi to‘g‘ri ko‘rsatilgan ifodani belgilang.

a) $30 + 48 \div 3 \times 2$

$\underline{30 + 48} \div 3 \times 2$ $= \underline{78 \div 3} \times 2$ $= 26 \times 2$ $= 52$ ☐	$30 + \underline{48 \div 3} \times 2$ $= \underline{30 + 16} \times 2$ $= 46 \times 2$ $= 92$ ☐
$30 + \underline{48 \div 3} \times 2$ $= 30 + \underline{16 \times 2}$ $= 30 + 32$ $= 62$ ☐	$30 + 48 \div \underline{3 \times 2}$ $= \underline{30 + 48} \div 6$ $= 78 \div 6$ $= 13$ ☐

b) $75 - 15 \div 5 \times 3$

$\underline{75 - 15} \div 5 \times 3$ $= \underline{60 \div 5} \times 3$ $= 12 \times 3$ $= 36$ ☐	$75 - \underline{15 \div 5} \times 3$ $= \underline{75 - 3} \times 3$ $= 72 \times 3$ $= 216$ ☐
$75 - 15 \div \underline{5 \times 3}$ $= 75 - \underline{15 \div 15}$ $= 75 - 1$ $= 74$ ☐	$75 - \underline{15 \div 5} \times 3$ $= 75 - \underline{3 \times 3}$ $= 75 - 9$ $= 66$ ☐

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 33 22/08/24 19:24

2 Amallarni bajaring.

a) $3 \times 10 - 6$	b) $8 + 8 \times 4$
c) $9 + 40 \div 4$	d) $54 \div 6 - 6$
e) $5 \times 9 - 3 \times 5$	f) $7 \times 6 + 36 \div 6 - 4$

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 34 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

Qavsli ifodalarda amallarni bajarish tartibi

D1 7-topshiriq

1 Quyidagi ifodalarning qay birida amallarni bajarish tartibi to‘g‘ri ko‘rsatilgan? Amallarni bajarish tartibi to‘g‘ri ko‘rsatilgan ifodani belgilang.

a) $24 \times (3 + 5) - 18 \div 6$

$24 \times \underline{(3 + 5)} - 18 \div 6$ $= \underline{24 \times 8} - 18 \div 6$ $= \underline{192 - 18} \div 6$ $= 174 \div 6$ $= 29$ ☐	$24 \times (3 + 5) - 18 \div 6$ $= 24 \times 8 - \underline{18 \div 6}$ $= 24 \times \underline{8 - 3}$ $= 24 \times 5$ $= 120$ ☐
$\underline{24 \times (3} + 5) - 18 \div 6$ $= 72 + 5 - \underline{18 \div 6}$ $= \underline{72 + 5} - 3$ $= 77 - 3$ $= 74$ ☐	$24 \times \underline{(3 + 5)} - 18 \div 6$ $= \underline{24 \times 8} - 18 \div 6$ $= 192 - \underline{18 \div 6}$ $= 192 - 3$ $= 189$ ☐

b) $19 + (17 - 6) \div 1 \times 5$

$19 + \underline{(17 - 6)} \div 1 \times 5$ $= \underline{19 + 11} \div 1 \times 5$ $= \underline{30 \div 1} \times 5$ $= 30 \times 5$ $= 150$ ☐	$19 + (17 - 6) \div \underline{1 \times 5}$ $= 19 + \underline{(17 - 6)} \div 5$ $= \underline{19 + 11} \div 5$ $= 30 \div 5$ $= 6$ ☐
$\underline{19 + (17} - 6) \div 1 \times 5$ $= \underline{36 - 6} \div 1 \times 5$ $= \underline{30 \div 1} \times 5$ $= 30 \times 5$ $= 150$ ☐	$19 + \underline{(17 - 6)} \div 1 \times 5$ $= 19 + \underline{11 \div 1} \times 5$ $= 19 + \underline{11 \times 5}$ $= 19 + 55$ $= 74$ ☐

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 35 22/08/24 19:24

2 Amallarni bajaring.

a) $(6 + 10) \times 5$	b) $(21 - 6) \div 3$
c) $(4 \times 7) - 18$	d) $52 - (16 \times 3) + 5$
e) $11 + (27 \div 9) \div 3$	f) $72 \div 8 + 3 \times (11 - 4)$
g) $(78 - 14) \div 8 \times (15 - 10 + 3)$	h) $20 + 5 \times 8 \div (12 - 8 \div 4)$

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 36 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

Matnli masalalar

D1 8-topshiriq

Masalalarni yeching. Har bir yechimning to‘g‘riligini tekshiring.

1 Gulchehra opaning oylik maoshi 1 460 000 so‘m. U maoshining 750 000 so‘mini jamg‘arib, qolgan pulini ehtiyojlari uchun sarflaydi. Gulchehra opa bir yilda jami qancha pul sarflaydi?



2 Jasur aka 748 500 so‘mga changyutkich sotib oldi. U 111 000 so‘mni boshlang‘ich to‘lov sifatida berib, qolgan qismini oyiga 25 500 so‘mdan bo‘lib to‘ladi. Jasur aka pulning qolgan qismini necha oyda to‘lagan?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 37 22/08/24 19:24

3 A, B va C homiylik markazlarida mos ravishda 1439, 6713 va 5936 ta sovg‘a to‘plami bor. Bu sovg‘alar to‘plami 12 ta mehribonlik uyiga teng miqdorda taqsimlandi. Har bir mehribonlik uyi nechtadan sovg‘a to‘plamini olgan?

4 Idishda 7 litr meva sharbati bor. Meva sharbati 65 ml li stakanlarga to‘ldirib quyildi.

a) Buning uchun nechta 65 ml li stakan kerak bo‘ldi?

b) Idishda qancha meva sharbati qoldi?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 38 22/08/24 19:24

5 Sanobar opa ishxonasi uchun 3 ta kompyuter va 2 ta noutbuk sotib oldi. U jami xarid uchun qancha to‘lashi kerak?



kompyuter



noutbuk

6 A zalda 445 nafar va B zalda 279 nafar o‘quvchi bor. O‘qituvchi A zaldagi bir nechta o‘quvchilarni B zalga ko‘chirgan edi, ikkala zalda ham o‘quvchilarning soni teng bo‘ldi. Ko‘chishdan so‘ng har bir zalda necha nafardan o‘quvchi bo‘ldi?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 39 22/08/24 19:24

7 Shahnoza 468 dona loviyani 15 ta qopchaga teng miqdorda joylasa, nechta loviya ortib qoladi?

8 Temur aka 13 ta futbol to‘pi sotib oldi. U har bir to‘p uchun 180 000 so‘mdan to‘ladi. U xuddi shu miqdordagi pulga 39 juft bir xil sport poyabzalini sotib oldi. Bir juft sport poyabzalining narxi qancha?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 40 22/08/24 19:24

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D2 9-topshiriq

Masalalarni yeching. Har bir yechimning to‘g‘riligini tekshiring.

1 Ma’lum miqdordagi pul 3 nafar o‘quvchiga taqsimlandi. Jonibek Aliga qaraganda 1250 so‘m ko‘proq oldi. Bahrom esa Jonibekka qaraganda 3 marta ko‘p pul oldi. Agar Ali 5000 so‘m olgan bo‘lsa, uchala bola jami qancha pul olgan?

2 Ravshan 11 yoshda. Uning opasi Durdona esa Ravshandan 5 yosh katta. Necha yildan so‘ng ularning birgalikdagi yoshi 65 ga teng bo‘ladi?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 41 22/08/24 19:24

3 Laziz aka 56 yoshda. Uning nabirasi Sardor esa 4 yoshda. Necha yildan so‘ng Laziz akaning yoshi nabirasining yoshidan 5 marta katta bo‘ladi?

4 Go‘zal va Zahroda bir xil miqdorda marka bor edi. Go‘zal 245 ta va Zahro 74 ta markasini sotdi. Shundan so‘ng Zahroda Go‘zalga qaraganda 4 marta ko‘p marka qoldi. Dastlab ularning har birida qanchadan marka bor edi?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 42 22/08/24 19:24



5 Sanjar aka 33 600 so‘mga 5 ta ko‘ylak va 8 ta shim sotib oldi. Agar bitta ko‘ylakning narxi bitta shimning narxidan 4 marta qimmat bo‘lsa, bitta ko‘ylakning narxi qancha?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 43 22/08/24 19:24

6 Bitta bo‘sh quti va bir nechta apelsinning umumiy massasi 25 kg.
Bitta bo‘sh quti va bir nechta olmaning umumiy massasi esa 11 kg.
Apelsinlarning massasi olmalarning massasidan 3 marta og‘ir.

a) Apelsinlarning massasini toping.

b) Bo‘sh qutining massasini toping.

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 44 22/08/24 19:24

7 Yasminada 120 ta stiker bor edi. U 20 ta stikerini Sitoraga berganidan so‘ng unda Sitoraning stikerlariga qaraganda 2 marta ko‘p stiker qoldi. Ikkala qizda jami nechta stiker bor?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 45 22/08/24 19:24

8 Kamol aka 5 kun davomida bitta loyiha ustida ishladi. U har kuni avvalgi kunga qaraganda 2 soat ko‘proq ishlab, loyihani 40 soatda yakunladi. Kamol aka oxirgi kuni necha soat ishlagan?


35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 46 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

D3 10-topshiriq

Matnli masalalarni yeching. Har bir yechimning to‘g‘riligini tekshiring.

1 5 ta shim va 3 ta ko‘ylakning narxi 2 060 000 so‘m. 1 ta ko‘ylak va 1 ta shimning birgalikdagi narxi 480 000 so‘m. 1 ta ko‘ylakning narxi qancha?



35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 47 22/08/24 19:24

2 Mahmud akada 20 tadan kam olma bor. U har bir likopchaga 3 tadan olma qo‘ysa, 4 ta olma ortib qoladi, agar 5 tadan qo‘ysa, 2 ta olma yetmay qoladi. Mahmud akada nechta olma bor?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 48 22/08/24 19:24

3 Jamshidda ukasi Sanjarga qaraganda 24 000 so‘m ko‘p pul bor edi. Onasi Jamshidga 3000 so‘m va Sanjarga 5000 so‘m berganidan so‘ng Jamshidning puli Sanjarnikiga qaraganda 2 marta ko‘p bo‘ldi. Dastlab Sanjarda qancha pul bo‘lgan?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 49 22/08/24 19:24

4 Berilgan sonlarning yig‘indisini toping.

$2 + 4 + 6 + 8 + \ldots + 66 + 68 + 70$

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 50 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

Amaliy topshiriq



To‘rt arifmetik amaldan foydalanib ifoda tuzing.

Juftlikda ishlang.

1 dan 9 gacha raqamlarni alohida va arifmetik amallar (+, −, ×, ÷) yozilgan kartochkalarni alohida teskari qilib terib chiqing.

4 ta raqamli va 3 ta arifmetik amallar yozilgan kartochkani tanlang. Tanlangan kartochkalardan foydalanib 2 xil ifoda tuzing.

Javobini yozing.

Misol

3 + 2 × 4 – 1

Javob: 10

a)

Javob:

b)

Javob:

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 51 22/08/24 19:24

Muammoli topshiriq

Hilola opada bir nechta 200 so‘mlik va 500 so‘mlik tangalar bor. Uning 200 so‘mlik tangalari soni 500 so‘mlik tangalari soniga qaraganda 4 marta ko‘p. Agar Hilola opada 39 000 so‘m bo‘lsa, unda jami nechta tanga bor?

- Masalani tushundingizmi?
- Reja tuzing.
- Masalani yeching.
- Yechimni tekshiring.

Reja

Yechish

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 52 22/08/24 19:24

Tekshirish

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 53 22/08/24 19:24

Matematika kundaligi



Ravshan 99 va 784 sonlarining ko‘paytmasini topmoqchi. Biroq uning kalkulyatoridagi 9 raqami ishlamayapti. Ravshanga kalkulyatoridan foydalanib 2 ta son ko‘paytmasini topishda yordam bering.
Yechimingizni izohlang va masalani yechishdagi qadamlar ketma-ketligini ko‘rsating.

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 54 22/08/24 19:24


Ism: Sinf: Sana:

3 Oddiy kasrlar

Sonlarni bo‘lishni kasr ko‘rinishida ifodalash

D1 1-topshiriq


1 2 ta pitsa 5 nafar bolaga teng taqsimlangan. Har bir bola pitsaning qancha qismini olgan?



2 ÷ 5 =

Har bir bola pitsaning _____ qismini olgan.

2 3 ta shokolad 4 nafar bolaga teng taqsimlansa, har bir bola shokoladning qancha qismini oladi?




_____ ÷ _____ =

Har bir bola shokoladning _____ qismini oladi.

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 55 22/08/24 19:24

3 6 ta pirog 4 ta bolaga teng taqsimlangan. Har bir bola pirogning qancha qismini oladi? Javobni aralash son ko‘rinishida ifodalang.



4 Javobni aralash son ko‘rinishida ifodalang.

a) $22 \div 4$	b) $25 \div 15$

5 Kasrlarni natural sonlar bo‘linmasi ko‘rinishida ifodalang.

a) $\frac{4}{5} =$ _____ $\div$ _____

b) $\frac{1}{6} =$ _____ $\div$ _____

c) $\frac{7}{6} =$ _____ $\div$ _____

d) $\frac{10}{9} =$ _____ $\div$ _____

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 56 22/08/24 19:24

Matnli masalalarni yeching.

6 Laziz aka 3 kg shakarni 5 ta idishga teng taqsimladi. Har bir idishga necha kilogrammdan shakar solingan? Javobni kasr ko‘rinishida ifodalang.

7 Uzunligi 7 m bo‘lgan arqon 4 ta teng bo‘lakka bo‘lindi. Har bir bo‘lak uzunligi necha metr? Javobni aralash son ko‘rinishida ifodalang.

8 Madina 8 ℓ suvni 5 ta idishga teng miqdorda quydi. Har bir idishga necha litr suv quyildi? Javobni aralash son ko‘rinishida ifodalang.

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 57 22/08/24 19:24

9 Birinchi shamning uzunligi 4 cm. Ikkinchi shamning uzunligi esa 14 cm. Ikkinchi sham birinchi shamdan necha marta uzun? Javobni aralash son ko‘rinishida ifodalang.

10 Aziza opa har biri 2 litrlik 3 quti sutni 15 ta stakanga teng qilib quydi. Har bir stakanga qancha sut quyildi? Javobni oddiy kasr ko‘rinishida ifodalang.

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 58 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

Oddiy kasrni o‘nli kasrga aylantirish

D1 2-topshiriq

1 Oddiy kasrni o‘nli kasr ko‘rinishida ifodalang.

a) $\frac{3}{50}=$	b) $\frac{14}{25}=$
c) $\frac{17}{20}=$	d) $\frac{3}{4}=$
e) $\frac{5}{8}=$	f) $\frac{8}{125}=$

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 59 22/08/24 19:24

2 Oddiy kasrni o‘nli kasrga aylantiring va natijani yuzdan birlar xonasigacha yaxlitlang.

a) $\frac{12}{7}=$	
b) $\frac{5}{8}=$	
c) $\frac{11}{3}=$	

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 60 22/08/24 19:24

3 Oddiy kasrni o‘nli kasrga aylantiring va natijani yuzdan birlar xonasigacha yaxlitlang.

a) $\frac{12}{13}=$	b) $\frac{42}{17}=$
c) $\frac{19}{21}=$	d) $\frac{74}{15}=$
e) $5\frac{8}{11}=$	f) $2\frac{11}{23}=$

Matnli masalalarni yeching.

4 Uzunligi 16 m bo‘lgan quvur teng 5 bo‘lakka bo‘lindi. Har bir bo‘lakning uzunligi necha metr? Javobni o‘nli kasr ko‘rinishida ifodalang.

5 25 ta mixning narxi 20 000 so‘m. 1 ta mixning narxi qancha? Javobni o‘nli kasr ko‘rinishida ifodalang.

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 61 22/08/24 19:24



6 Uzunligi 22 m bo‘lgan sim 30 ta teng bo‘lakka bo‘lindi. Har bir bo‘lakning uzunligini toping. Javobni o‘nli kasr ko‘rinishida verguldan keyingi 2 xonagacha yaxlitlab yozing.

7 Go‘zal $\frac{1}{4}$ kg qizil loviya va $\frac{5}{8}$ kg oq loviya sotib oldi. U jami necha kilogramm loviya sotib olgan? Javobni o‘nli kasr ko‘rinishida yozing.

8 Ravshan idishdagi 2 ℓ olma sharbatidan $\frac{3}{4}$ ℓ ini ichdi. Idishda necha litr olma sharbati qoldi? Javobni o‘nli kasr ko‘rinishida yozing.

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 62 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

Eslang 

To‘g‘ri kasrlarni qo‘shish va ayirish

1 Qo‘shing.

a) $\frac{1}{4}+\frac{2}{5}$	b) $\frac{3}{7}+\frac{1}{10}$
c) $\frac{5}{6}+\frac{3}{4}$	d) $\frac{5}{8}+\frac{2}{3}$

2 Ayiring.

a) $\frac{4}{5}-\frac{1}{2}$	b) $\frac{7}{8}-\frac{3}{5}$
c) $\frac{7}{9}-\frac{3}{4}$	d) $4-\frac{1}{3}$

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 63 22/08/24 19:24

3 Sarvar idishdagi $\frac{7}{8}$ ℓ suvdan $\frac{2}{5}$ ℓ ini kosaga quydi. Idishda necha litr suv qoldi? Javobingizni oddiy kasr ko‘rinishida ifodalang.

4 Birinchi arqon $\frac{4}{5}$ m bo‘lib, u ikkinchi arqondan $\frac{1}{4}$ m qisqa. Ikkinchi arqon necha metr?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 64 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

Aralash sonlarni qo‘shish va ayirish

D1 3-topshiriq

1 Qo‘shing. Javobni aralash son ko‘rinishida ifodalang va to‘g‘riligini tekshiring.

a) $2\frac{1}{4}+2\frac{3}{8}=$	b) $4\frac{2}{3}+2\frac{4}{9}=$
c) $1\frac{1}{2}+2\frac{1}{3}=$	d) $3\frac{5}{6}+2=$
e) $4+2\frac{2}{9}=$	f) $3\frac{1}{3}+3\frac{4}{5}=$
g) $1\frac{1}{3}+2\frac{7}{8}=$	h) $2\frac{2}{3}+4\frac{4}{7}=$

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 65 22/08/24 19:24

2 Ayiring. Javobni aralash son ko‘rinishida ifodalang va to‘g‘riligini tekshiring.

a) $2\frac{7}{8} - 1\frac{1}{2} =$	b) $6\frac{5}{12} - 2\frac{1}{4} =$
c) $5\frac{2}{5} - 3\frac{1}{2} =$	d) $7 - 3\frac{5}{6} =$
e) $4\frac{6}{7} - 2\frac{2}{3} =$	f) $8\frac{2}{9} - 3\frac{4}{5} =$
g) $5\frac{7}{10} - 4 =$	h) $6\frac{3}{4} - 1\frac{9}{10} =$

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 66 22/08/24 19:24

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D1 4-topshiriq

Matnli masalalarni yeching.
Javobni aralash son ko‘rinishida ifodalang va to‘g‘riligini tekshiring.

1 Idishda $4\frac{1}{5}\,\ell$ suv bor. Idishni to‘ldirish uchun unga yana $1\frac{3}{8}\,\ell$ suv quyish kerak. Idishning sig‘imi necha litr?

2 Rasul aka $6\frac{3}{5}$ kg guruchning $3\frac{1}{2}$ kg ini palov uchun ishlatdi. Qancha guruch qoldi?

3 Mansur $2\frac{7}{8}$ km masofaga yugurdi. Salim esa Mansurga qaraganda $\frac{4}{5}$ km kam masofaga yugurdi. Salim qancha masofaga yugurgan?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 67 22/08/24 19:24

4 Arqon $4\frac{3}{4}$ m va $2\frac{7}{10}$ m o‘lchamli ikki qismga bo‘lindi. Arqonning uzunligi necha metrga teng?

5 Jasurning bo‘yi $1\frac{3}{5}$ m. Umidaning bo‘yi Jasurning bo‘yiga qaraganda $\frac{1}{4}$ m uzun. Umidaning bo‘yi necha metr?

6 Nargiza opa 5 metrli matoning $2\frac{7}{8}$ metridan parda tikdi. Necha metr mato qoldi?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 68 22/08/24 19:24

Ism: **Sinf:** **Sana:**

D2 5-topshiriq

Matnli masalalarni yeching.
Javobni aralash son ko‘rinishida ifodalang va to‘g‘riligini tekshiring.

1 Zahro $4\frac{3}{10}$ km masofaga yugurdi. Guli esa Zahroga qaraganda $1\frac{1}{4}$ km ko‘proq masofaga yugurdi. Ikkalasi birgalikda necha kilometr masofaga yugurgan?

2 Rasul aka idishdagi $3\frac{3}{4}\,\ell$ suvdan $2\frac{2}{5}\,\ell$ ini ishlatdi. So‘ng idishga $1\frac{3}{10}\,\ell$ suv quydi. Natijada idishdagi suv necha litr bo‘ldi?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 69 22/08/24 19:24

3 Ko‘k simning uzunligi 8 m ga teng. U qizil simga qaraganda $2\frac{1}{5}$ m uzun. Qizil sim esa qora simga qaraganda $3\frac{3}{8}$ m uzun. Qora simning uzunligini toping.

4 Sevara opa $4\frac{7}{10}$ m oq, $3\frac{1}{2}$ m qora va $2\frac{5}{8}$ m qizil mato sotib oldi. U jami necha metr mato sotib olgan?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 70 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:


Eslang 

To‘plamning qismi


1 Javobni topish uchun doirachalardan iborat guruhlarni ajrating.

Namuna


9 ning $\frac{2}{3}$ qismi = 6




a) 12 ning $\frac{5}{6}$ qismi



b) 36 ning $\frac{4}{9}$ qismi



c) 21 ning $\frac{2}{7}$ qismi



35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 71 22/08/24 19:24

2 Ifodaning qiymatini toping.

a) 16 ning $\frac{1}{4}$ qismi	b) 15 ning $\frac{3}{5}$ qismi
c) 560 ning $\frac{2}{8}$ qismi	d) 279 ning $\frac{7}{9}$ qismi

Matnli masalalarni yeching.

3 Sojidada 36 ta tugma bor. Ularning $\frac{1}{6}$ qismi qizil, qolganlari esa ko‘k rangda. Sojidada nechta ko‘k tugma bor?

4 Sanobar opa pishirgan somsalarning $\frac{4}{7}$ qismi qovoqli, qolganlari esa kartoshkali. Agar qovoqli somsalar 32 ta bo‘lsa, u jami nechta somsa pishirgan?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 72 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

To‘g‘ri kasrni natural songa ko‘paytirish

D1 6-topshiriq

1 Ko‘paytiring.

a) $\frac{5}{8} \times 24 =$ O	b) $\frac{3}{5} \times 20 =$ R
c) $\frac{2}{3} \times 69 =$ T	d) $\frac{3}{4} \times 32 =$ A
e) $\frac{4}{9} \times 72 =$ X	f) $\frac{9}{10} \times 150 =$ I

Quyidagi sonlarga mos harflarni yozing. Qanday so‘z hosil bo‘ldi?

32	15	46	135	12	24

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 73 22/08/24 19:24

2 Ko‘paytiring. Javobni aralash son ko‘rinishida ifodalang.

a) $\frac{1}{3} \times 62 =$ A	b) $\frac{3}{4} \times 38 =$ A
c) $\frac{6}{7} \times 48 =$ Y	d) $\frac{5}{8} \times 25 =$ I
e) $\frac{2}{5} \times 34 =$ D	f) $\frac{3}{7} \times 13 =$ B

Quyidagi sonlarga mos harflarni yozing. Qanday so‘z hosil bo‘ldi?

_____	_____	_____	_____	_____	_____
$28\frac{1}{2}$	$5\frac{4}{7}$	$20\frac{2}{3}$	$13\frac{3}{5}$	$15\frac{5}{8}$	$41\frac{1}{7}$

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 74 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

D1 7-topshiriq

Matnli masalalarni yeching.

1 Hovuzdagi 74 ℓ suvning $\frac{3}{4}$ qismi gullarni sug‘orish uchun ishlatildi. Necha litr suv ishlatilgan? Javobni aralash son ko‘rinishida ifodalang.

2 Qishloq kengashining ma’lum qilishicha, to‘plangan chiqindilarning $\frac{3}{5}$ qismini qayta ishlash mumkin. Qishloqda jami 415 kg chiqindi to‘plandi.

a) Qancha chiqindini qayta ishlash mumkin?

b) Qancha chiqindini qayta ishlab bo‘lmaydi?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 75 22/08/24 19:24

3 Ali aka 32 km masofaning $\frac{3}{8}$ qismini yugurib, qolgan qismini esa yurib bosib o‘tdi. Ali aka necha kilometr yurgan?

4 Muslima 126 ta shirinlik pishirdi. Ularning $\frac{1}{2}$ qismi shokoladli, $\frac{1}{3}$ qismi qulupnayli va qolgan qismi olmali. Muslima nechta olmali shirinlik pishirgan?


35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 76 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

Noto‘g‘ri kasrni natural songa ko‘paytirish


D1 8-topshiriq

1 Ifodaning qiymatini toping: $\frac{5}{4} \times 3$. Javobni aralash son ko‘rinishida ifodalang.



$\frac{5}{4} \times 3 =$

2 $\frac{7}{5}$ ni 4 ga ko‘paytiring. Javobni aralash son ko‘rinishida ifodalang.



$\frac{7}{5} \times 4 =$

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 77 22/08/24 19:24

3 Ko‘paytiring.

a) $\frac{9}{2} \times 24 =$	b) $\frac{20}{9} \times 45 =$
c) $\frac{7}{5} \times 85 =$	d) $\frac{8}{7} \times 98 =$
e) $\frac{8}{3} \times 96 =$	f) $\frac{11}{6} \times 246 =$



35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 78 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

Ikkita to‘g‘ri kasrni ko‘paytirish

D1 9-topshiriq

1 Ifodaning qiymatini toping. Javobni chizmada shtrixlab ko‘rsating.

a)  $\frac{1}{4}$ ning $\frac{1}{2}$ qismi =	$\frac{1}{4}$ ning $\frac{1}{2}$ qismi $= \frac{1}{4} \times \frac{1}{2}$ $=$
b)  $\frac{1}{2}$ ning $\frac{2}{3}$ qismi =	$\frac{1}{2}$ ning $\frac{2}{3}$ qismi $= \frac{1}{2} \times \frac{2}{3}$

2 Ko‘paytiring. Javobni oddiy kasr ko‘rinishida ifodalang.

a) $\frac{2}{5} \times \frac{4}{5} =$	b) $\frac{1}{7} \times \frac{3}{4} =$
c) $\frac{2}{3} \times \frac{3}{4} =$	d) $\frac{2}{7} \times \frac{1}{2} =$
e) $\frac{9}{10} \times \frac{2}{3} =$	f) $\frac{7}{12} \times \frac{4}{5} =$

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 79 22/08/24 19:24

Matnli masalalarni yeching.

3 Oysha $\frac{1}{5}$ kg piyozning $\frac{5}{8}$ qismini ovqat tayyorlash uchun ishlatdi. U necha kilogramm piyoz ishlatgan?

4 Davron jami pulining $\frac{1}{3}$ qismini sarfladi. Agar u sarflagan pulining $\frac{9}{10}$ qismiga shim sotib olgan bo‘lsa, Davron jami pulining qancha qismiga shim sotib olgan?

5 Shodiyadagi bir quti tugmaning $\frac{1}{2}$ qismi qizil rangda. Qizil rangdagi tugmalarning $\frac{3}{4}$ qismi esa dumaloq shaklda. Barcha tugmalarning qancha qismi qizil va dumaloq shaklda?

6 5-“A” sinf o‘quvchilarining $\frac{2}{3}$ qismi suzishni biladi. Suzishni biladigan o‘quvchilarning $\frac{4}{5}$ qismi o‘g‘il bola. Suzishni biladigan o‘g‘il bolalar sinf o‘quvchilarining qancha qismini tashkil etadi?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 80 22/08/24 19:24


Ism: Sinf: Sana:

To‘g‘ri va noto‘g‘ri kasrlarni ko‘paytirish

D1 10-topshiriq

1 Ko‘paytiring. Javobni chizmada shtrixlab ko‘rsating va oddiy kasr ko‘rinishida ifodalang.


a) $\frac{3}{2}$ ni $\frac{1}{2}$ ga ko‘paytiring.



$\frac{3}{2}$ ning $\frac{1}{2}$ qismi $= \frac{3}{2} \times \frac{1}{2}$

$=$

b) $\frac{5}{4}$ ni $\frac{1}{4}$ ga ko‘paytiring.



$\frac{5}{4}$ ning $\frac{1}{4}$ qismi $=$

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 81 22/08/24 19:24


2 Ko‘paytiring.

a) $\frac{2}{3} \times \frac{9}{8} =$	b) $\frac{8}{7} \times \frac{3}{4} =$

3 Ko‘paytiring.

a) $\frac{2}{3} \times \frac{7}{3} =$	b) $\frac{4}{5} \times \frac{8}{5} =$
c) $\frac{5}{6} \times \frac{8}{5} =$	d) $\frac{11}{12} \times \frac{9}{4} =$

4 To‘g‘ri to‘rtburchakning tomonlari $\frac{8}{5}$ m va $\frac{3}{4}$ m bo‘lsa, uning yuzini toping. Javobni aralash son ko‘rinishida ifodalang.



35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 82 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

Ikkita noto‘g‘ri kasrni ko‘paytirish

D1 11-topshiriq

1 Ko‘paytiring.

a) $\frac{3}{2}$ ni $\frac{5}{3}$ ga ko‘paytiring.

$\frac{3}{2}$ ni $\frac{5}{3}$ ga =

b) $\frac{7}{4}$ ni $\frac{11}{6}$ ga ko‘paytiring.

$\frac{7}{4}$ ni $\frac{11}{6}$ ga =

c) $\frac{8}{7}$ va $\frac{15}{12}$ ni ko‘paytiring.

$\frac{8}{7} \times \frac{15}{12} =$

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 83 22/08/24 19:24

2 Ko‘paytiring.

a) $\frac{4}{3} \times \frac{3}{2} =$	b) $\frac{6}{5} \times \frac{10}{3} =$
c) $\frac{12}{7} \times \frac{7}{4} =$	d) $\frac{10}{3} \times \frac{12}{5} =$

3 Ko‘paytiring.

a) $\frac{12}{7} \times \frac{9}{5} =$	b) $\frac{9}{4} \times \frac{7}{6} =$
c) $\frac{7}{3} \times \frac{15}{4} =$	d) $\frac{9}{8} \times \frac{4}{3} =$
e) $\frac{7}{2} \times \frac{8}{5} =$	f) $\frac{11}{6} \times \frac{9}{4} =$

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 84 22/08/24 19:24


Ism: Sinf: Sana:

Aralash sonni natural songa ko‘paytirish


D1 12-topshiriq

1 Ko‘paytiring. Javobning to‘g‘riligini rasmdan foydalanib tekshiring.

a) $1\frac{1}{2} \times 2 =$



b) $3\frac{2}{3} \times 4 =$



35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 85 22/08/24 19:24

2 Ko‘paytmani javobi bilan tutashtiring.

$4 \times 2\frac{4}{5}$	$11\frac{1}{6}$
$2 \times 5\frac{7}{12}$	$11\frac{1}{2}$
$1\frac{7}{8} \times 6$	$11\frac{1}{5}$
$2\frac{3}{10} \times 5$	$11\frac{1}{4}$

3 Ko‘paytiring.

a) $3\frac{2}{5} \times 25 =$ _____	b) $16 \times 4\frac{5}{8} =$ _____
c) $3\frac{2}{3} \times 27 =$ _____	d) $22 \times 2\frac{4}{9} =$ _____

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 86 22/08/24 19:24

Ism: **Sinf:** **Sana:**


D1 13-topshiriq

Matnli masalalarni yeching.

Javobni aralash son ko‘rinishida ifodalang va to‘g‘riligini tekshiring.

1 Oyshaning vazni $38\frac{1}{4}$ kg. Otasining vazni Oyshaning vaznidan ikki marta og‘ir. Otasining vazni qancha?

2 Tomoni $5\frac{3}{10}$ cm ga teng 3 ta kvadratdan tashkil topgan quyidagi to‘g‘ri to‘rtburchakning perimetrini toping.



35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 87 22/08/24 19:24

3 Sanobar opa bitta ko‘rpacha tikish uchun $4\frac{2}{5}$ m mato ishlatdi. Xuddi shunday 6 ta ko‘rpachani tikish uchun necha metr mato kerak?

4 Lobar opa 25 shisha suv sotib oldi. Agar har bir idishda $1\frac{1}{2}\,\ell$ suv bo‘lsa, u jami necha litr suv sotib olgan?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 88 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

Qolgan qismning qismi

D1 14-topshiriq

Qolgan qismning qismini toping. Javobni oddiy kasr ko‘rinishida ifodalang.

Namuna


Qolgan qismning $\frac{1}{2}$ qismini toping.




Qolgan qism = $\frac{2}{5}$

$\frac{\cancel{2}^{1}}{5} \times \frac{1}{\cancel{2}_{1}} = \frac{1}{5}$

1 Qolgan qismning $\frac{1}{3}$ qismini toping.




2 Qolgan qismning $\frac{2}{3}$ qismini toping.




35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 89 22/08/24 19:24


3 Qolgan qismning $\frac{3}{5}$ qismini toping.



4 Qolgan qismning $\frac{3}{4}$ qismini toping.



5 Qolgan qismning $\frac{1}{3}$ qismini toping.



35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 90 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

Matnli masalalar

D2 15-topshiriq

Matnli masalalarni yeching.

1. Maktabda jami 1500 nafar o‘quvchi bo‘lib, ularning $\frac{3}{5}$ qismini o‘g‘il bolalar tashkil etadi. Maktabdagi qizlarning $\frac{2}{16}$ qismi ko‘zoynak taqadi. Jami necha nafar qiz ko‘zoynak taqadi?

2. Latofat pulining $\frac{1}{6}$ qismiga hikoyalar to‘plami, qolgan pulining $\frac{1}{5}$ qismiga gazeta sotib oldi. U pulining qancha qismiga gazeta sotib oldi?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 91 22/08/24 19:24

3 Farida bir nechta pirog pishirdi. Piroglarning $\frac{3}{8}$ qismi olmali, qolganining $\frac{2}{5}$ qismi yong‘oqli, qolgani esa shokoladli. Shokoladli piroglar jami piroglarning qancha qismini tashkil etadi?

4 Hayvonot bog‘iga borganlarning $\frac{4}{7}$ qismi – katta yoshlilar, qolganlari esa bolalar. Bolalarning $\frac{2}{3}$ qismini qizlar tashkil etadi. Hayvonot bog‘iga borganlarning qancha qismini o‘g‘il bolalar tashkil etadi?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 92 22/08/24 19:24

5 Manzura opada 76 000 so‘m bor. U pulining $\frac{1}{4}$ qismiga sumka sotib oldi. Qolgan pulining $\frac{1}{3}$ qismiga esa bir juft oyoq kiyim sotib oldi. Manzura opa oyoq kiyim uchun qancha pul sarfladi?

6 Jasur pulining $\frac{2}{3}$ qismiga ovqat sotib oldi. Qolgan pulining $\frac{1}{4}$ qismiga esa shirinlik oldi. Agar Jamshid 18 000 so‘mga ovqat sotib olgan bo‘lsa, shirinlik uchun qancha pul sarflagan?

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 93 22/08/24 19:24

7 $\frac{1}{5}$ qismi 24 ga teng bo‘lgan sonning $\frac{1}{4}$ qismini toping.

8 To‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi yer maydonining tomonlari $8\frac{1}{2}$ m va $6\frac{3}{5}$ m.

a) Yer maydonining perimetrini toping.

b) Yer maydonining yuzini toping.

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 94 22/08/24 19:24

Ism: Sinf: Sana:

D3 16-topshiriq

1 Xadicha pulining $\frac{4}{5}$ qismiga qo‘l telefoni sotib oldi. Qolgan pulining $\frac{2}{3}$ qismiga esa sumka sotib oldi. Shundan so‘ng unda 60 000 so‘m qoldi. Xadicha qo‘l telefoni uchun sumkaga qaraganda qancha ko‘p pul sarflagan?

2 Maktabdagi o‘quvchilarning $\frac{2}{12}$ qismi chap qo‘lda, qolganlari esa o‘ng qo‘lda yozadi. Maktabdagi o‘naqaylarning soni chapaqaylarga qaraganda 272 nafarga ko‘p bo‘lsa, jami o‘quvchilar sonini toping.

35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 95 22/08/24 19:24

3 Latofat opa pishirgan jami somsalarning $\frac{4}{9}$ qismi ko‘katli, qolganlari esa go‘shtli. U ko‘katli somsalarning $\frac{1}{2}$ qismini qo‘shnisiga, go‘shtli somsalarning $\frac{2}{5}$ qismini esa farzandlariga berdi. Shundan so‘ng 60 ta somsa qoldi. Latofat opa jami nechta somsa pishirgan?


35 MATEMATICS WORKBOOK G5 P1 UZB 220x290 224PG.indd 96 22/08/24 19:24

Ism: **Sinf:** **Sana:**

Amaliy topshiriq

To‘g‘ri kasrlarni o‘zaro ko‘paytirish orqali to‘g‘ri to‘rtburchakning yuzini toping.

